



YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2024-yil 1-son

VOLUME 4 / ISSUE 1 / 2024

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.4.1.



Crossref
Content
Registration

ISSN: 2181-1938

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence

MUNDARIJA

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 5 HOSHIMXONOV AHROR MO'MINOVICH**
O'zbekistonda boshqaruv tizimini takomillashtirish
istiqbollari
- 14 ERGASHEV IKROM ABDURASULOVICH**
Soliq nazorati tadbirlarini amalga oshirish orqali soliq
intizomini ta'minlashning nazariy-huquqiy mexanizmlari
- 24 ABDULLAYEVA MAFTUNA MUROT QIZI**
Huquq va qonun ustuvorligi konstitutsiyaviy-huquqiy
prinsip sifatida
- 31 MAXMUDOV FIRUZ BAXTIYOR O'G'LI**
Davlat xaridlari tizimida manfaatlar to'qnashuvining
oldini olishning tashkiliy-huquqiy jihatlari
- 44 BOKIYEV JAHONGIR NURMATJON O'G'LI**
Sun'iy intellektni ta'lim olish jarayoniga tatbiq
etishning ayrim jihatlari

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI. XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 53 XAZRATQULOV ODILBEK TURSUNOVICH**
Raqamli moliyaviy xizmatlar tushunchasi, tarixiy
rivojlanish va huquqiy asoslari
- 64 АЪЗАМХУЖАЕВ УМИДХОН ШАВКАТ УГЛИ**
Национальные правовые аспекты реализации
функций государства при создании и развитии
международных транспортных коридоров
- 73 NAEEM ALLAHRAKHA**
Practices of the advertisement legislation of the
Republic of Uzbekistan

12.00.05 – MEHNAT HUQUQI. IJTIMOIY TA'MINOT HUQUQI

- 91 JAVLIYEVA GULLOLA ABDURAHIM QIZI**
Raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat munosabatlari
transformatsiyasi va notipik mehnat munosabatlari

12.00.06 – TABIIY RESURLAR
HUQUQI. AGRAR HUQUQ.
EKOLOGIK HUQUQ

101 MAXKAMOV DURBEK NEMATOVICH

Flora qonunchiligini takomillashtirish istiqbollari va zamonaviy tendensiyalar

110 XAYITOV PANJI BUXAROVICH

“Yashil” energetikani rivojlantirishning huquqiy asoslari va istiqbollari

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI.
HUQUQBUZARLIKLARNING
OLDINI OLISH.KRIMINOLOGIYA.
JINOYAT-IJROIYA HUQUQI.

117 KAMALOVA DILDORA GAYRATOVNA

Jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish va majburan to'xtatish holatlari tahlili

127 MIRZARAIMOV SARDOR TAXIROVICH

Bezorilik: jinoiy-huquqiy kvalifikatsion muammolar

12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI.
KRIMINALISTIKA,
TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA
SUD EKSPERTIZASI

141 RASHIDOV BEXZOD NURBOEVICH

**ABDUVAHOBOV SHERZODBEK
ABDUVAHOBOVICH**

Jinoyat ishlarini tergov qilishda mutaxassisning protsessual maqomi

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

149 BEGATOV JASURBEK NUMONJANOVICH

Mehnat munosabatlarida kamsitishning oldini olish bo'yicha rivojlangan davlatlar tajribasi (AQSh va Yaponiya misolida)

**160 ZAHMATKASH, FIDOIY, SIVILIST OLIM VA
USTOZ RUZINAZAROV SHUXRAT
NURALIYEVICHNING YORQIN VA IBRATLI
HAYOT YO'LI**

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.4.1./RXC9518>
UDC: 347:336.74(045)(575.1)

RAQAMLI MOLIYAVIY XIZMATLAR TUSHUNCHASI, TARIXIY RIVOJLANISH VA HUQUQIY ASOSLARI

Xazratqulov Odilbek Tursunovich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Xalqaro xususiyl huquq kafedrası mudiri,
dotsent, yuridik fanlar nomzodi
ORCID: 0000-0003-0644-0122
e-mail: odilbekhazratqulov123@gmail.com

Annotatsiya. O'tgan yillar davomida jahonda bo'lib o'tgan moliyaviy inqiroz natijasida bank sohasi kam foizli stavkalar, kreditlar hajmini pasaytirish, tartibga solish hamda muvofiqlik talablarini oshirish bilan bog'liq masalalarga duch keldi. So'nggi yillarda esa katta inqilobiy o'zgarishlar yuz berib, ular qatorida raqamli bank xizmatlari va raqamli moliyalashtirish singari yo'nalishlari paydo bo'ldi. Bunday ijobiy natijaga erishishning asosiy sababini nafaqat jahonda ro'y bergan iqtisodiy inqiroz, balki Osiyoda faoliyat olib borayotgan moliyaviy kompaniyalarning innovatsion yuksalishi bilan bog'lash mumkin. Aynan ushbu yuksalishlar zampirida mavjud banklar inqirozdan keyin yuzaga keladigan barcha tahdidlar, shuningdek, moliyaviy texnologiyalar (FinTech) va platformaga asoslangan raqobatchilardan chakana savdoda raqobatning kuchayishi natijasida kelib chiqadigan raqamli "inqilob" bilan kurashishga majbur bo'ldi. Buning natijasida moliyaviy sektorning rentabelligi xavf ostida qolib, Yevropa va Yaponiya banklari kapital xarajatlarini qoplash imkoniyati cheklandi. Shu o'rinda o'n yil ichida eng yaxshi moliyaviy barqaror 10 ta kompaniya ro'yxatida "Amazon", "Google" yoki "Alibaba Group" kabi yirik innovatsion texnologik kompaniyalarning kapitallashuvi "JP Morgan Chase" kompaniyasi mablag'laridan ikki baravar ko'payib ketganligini kuzatish mumkin. Biz mazkur maqola orqali raqamli moliyaviy xizmat ko'rsatish sohasining moliyaviy bozorga kirib kelishi, uning rivojlanish tarixi va huquqiy asoslarini tashkil qiluvchi mezonlar haqida to'xtalib o'tamiz.

Kalit so'zlar: raqamli xizmat, moliyaviy xizmat, "Amazon", "Alibaba", texnologik kompaniya, moliyaviy texnologiya.

ПОНЯТИЕ, ИСТОРИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ И ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ ЦИФРОВЫХ ФИНАНСОВЫХ УСЛУГ

Хазраткулов Одилбек Турсунович,
кандидат юридических наук, доцент,
заведующий кафедрой «Международное частное право»
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В результате мирового финансового кризиса последних лет банковская отрасль столкнулась с проблемами, связанными с низкими процентными ставками, сокращением кредитования, усилением требований регулирования и соответствия. В последние годы также произошли серьезные революционные изменения в банковской отрасли, включающие появление таких областей, как цифровой банкинг и цифровое финансирование. Основной причиной достижения столь положительного результата можно назвать не только мировой экономический кризис, но и инновационный рост финансовых компаний, осуществляющих деятельность в Азиатском регионе. В основе этого бума лежит то, что

действующим банкам пришлось иметь дело со всеми посткризисными угрозами, а также с цифровой «революцией», возникшей в результате усиления конкуренции в розничной торговле со стороны финансовых технологий (FinTech) и конкурентов, основанных на платформах. В результате прибыльность финансового сектора оказалась под угрозой, а возможности европейских и японских банков покрыть свои капитальные затраты были ограничены. На данный момент можно наблюдать, что капитализация крупных инновационных технологических компаний, таких как Amazon, Google или Alibaba Group, входящих в список 10 лучших финансово устойчивых компаний, за десять лет превысила капитализацию JP Morgan Chase вдвое. В данной статье будут обсуждены критерии, определяющие выход цифровых финансовых услуг на финансовый рынок, история их развития и правовые основы.

Ключевые слова: цифровой сервис, финансовый сервис, Amazon, Alibaba, технологическая компания, финансовые технологии.

THE CONCEPT HISTORICAL DEVELOPMENT AND LEGAL FRAMEWORK OF DIGITAL FINANCIAL SERVICES,

Khazratkulov Odilbek Tursunovich,

Head of the Department of Private International Law,
Tashkent State University of Law,
Associate Professor, Candidate of Science in Law

Abstract. As a result of the global financial crisis over the past years, the banking industry has faced issues related to low interest rates, reduced lending, increased regulation, and compliance requirements. Recent years have also seen major revolutionary changes in the banking industry, including the emergence of areas such as digital banking and digital financing. The main reason for achieving such a positive result can be attributed not only to the global economic crisis, but also to the innovative growth of financial companies operating in the Asian region. It is at the heart of these booms that incumbent banks have had to deal with all the post-crisis threats, as well as the digital “revolution” arising from increased retail competition from financial technology (FinTech) and platform-based competitors. As a result, the profitability of the financial sector was at risk, and the ability of European and Japanese banks to cover their capital expenditures was limited. At this point, it can be observed that the capitalization of large innovative technological companies such as Amazon, Google, or Alibaba Group in the list of the 10 best financially stable companies in ten years has doubled from the funds of JP Morgan Chase. This article will discuss the criteria that determine the entry of digital financial services into the financial market, the history of their development, and the legal framework.

Keywords: digital service, financial service, Amazon, Alibaba, technology company, financial technology.

Kirish

Jahon iqtisodiyoti yillar davomida bir necha bor rivojlanib, o'z amaliyotida bir necha bor inqiroziy holatlarini o'tkazdi va buning natijasida yetarli tajribaga ega bo'ldi. Natijada shu yo'l orqali jahon iqtisodiyoti globallashuv jarayoni tez suratlarda amalga oshdi va yana takomillashib bormoqda. Bugungi kunda yangi yondashuvlar paydo bo'lganligi bois ushbu munosabatlarni tartibga

solishga qaratilgan norma va qonunlarning bazasini tashkil qiluvchi konsepsiyalar shakllandi.

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi sharoitida moliyaviy texnologiyalar (FinTech) sohasini huquqiy tartibga solish muammolarini o'rganish, ayniqsa, dolzarb va amaliy jihatdan davr talabiga aylanmoqda. Ushbu sohada yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni samarali huquqiy tartibga solish

milliy iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish vazifalariga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi moliya tizimining texnologik yutuqlar va raqamli transformatsiyasini ta'minlashda strategik ahamiyatga ega.

Biroq ayni vaqtda raqamli moliyaviy xizmatlarni milliy huquqiy tartibga solish tizimi boshlang'ich bosqichda bo'lib, ularni moliyaviy va huquqiy tartibga solishda texnologik bozordagi raqamli moliyaviy aktiv, raqamli transkripsiya, raqamli yozuv, raqamli transkripsiya reyestri, mayning, kriptovalyuta, bitkoyin va boshqa shunga o'xshash unsurlarga nisbatan rasmiy tushunchalar ishlab chiqilmagan. Jahon hamjamiyatining teng huquqli a'zosi sifatida O'zbekiston Respublikasida ham raqamli moliyaviy xizmat ko'rsatish sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari ishlab chiqishga qaratilgan harakatlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, moliyaviy xizmat ko'lamini kengaytirish va ommalashtirish milliy strategiyasini amaliyotga tatbiq etish bo'yicha muvofiqlashtiruvchi kengash dastlab O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan ishlab chiqilgan "2021–2023-yillarga mo'ljallangan Moliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish milliy strategiyasi"ni tasdiqladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasini 2023-yilda sifatli va o'z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–300-son qarori bilan IT sohasida xizmatlar eksporti hajmini 5 milliard dollarga, yaratilgan ish o'rinlari sonini 100 mingga yetkazish, IT-parkda xorijiy kompaniyalar uchun yanada qulay sharoitlar yaratish va ularning vakolatxonalari sonini 1 000 taga yetkazish vazifasi belgilangan.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 1-fevraldagi "Raqamli texnologiyalar xalqaro markazini tashkil etish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF–25-sonli Farmoni asosida Raqamli texnologiyalar sohasida mahsulotlar ishlab chiqarish va xiz-

matlar ko'rsatish uchun qulay sharoitlarga ega bo'lgan maxsus hudud sifatida Raqamli texnologiyalar xalqaro markazini tashkil qilish, raqamli texnologiyalar sohasida innovatsiyalar, xizmatlar va biznes mahsulotlarini ishlab chiqish va sinovdan o'tkazish bo'yicha "tartibga solish qumdoni"ni joriy etish, raqamli texnologiyalar sohasida tadbirkorlik va investitsiya faoliyatini amalga oshirish uchun ilg'or xalqaro tajribalarga asoslangan qulay sharoitlar yaratish orqali mamlakatda raqamli iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb etishga ko'maklashish chora-tadbirlari ishlab chiqildi.

Biroq ayni vaqtda raqamli moliyaviy xizmatlarni milliy huquqiy tartibga solish tizimi boshlang'ich bosqichda bo'lib, ularni moliyaviy va huquqiy tartibga solishda texnologik bozordagi raqamli moliyaviy aktiv, raqamli transkripsiya, raqamli yozuv, raqamli transkripsiya reyestri, mayning, kriptovalyuta, bitkoyin va boshqa shunga o'xshash unsurlarga nisbatan rasmiy tushunchalar ishlab chiqilmaganligi bu borada amalga oshiriladigan ishlar salmog'ini belgilab bermoqda.

Jamiyatning har tomonlama ildam rivojlanishi yangi yaratilgan texnologiyalar bilan bog'liq bo'lib, albatta, bu ilgari surilgan kreativ g'oyalar, yangicha yondashuvlar hamda atroflicha qo'llab-quvvatlangan intellektual salohiyat zahirida vujudga keladi. Bugungi kunda raqamli munosabatlarning amalda mavjudligi uning faktik jihatdan huquqiy tartibga solish jarayonlaridan bir necha yilga ilgari ketganligi sir emas. Raqamli munosabatlarni huquqiy tartibga solish masalasi har bir huquq tizimida u yoki bu jihatdan tahlil etilayotgan bo'lsa-da, biroq hanuzgacha umumtan olingan qoidalar, tamoyillari hamda fuqarolik huquqi muomalasidagi maqomiga doir yakdillik bilan tan olingan mezonga ega emas. Jamiyat va davlatning har tomonlama rivojlanishi borasida har bir ilgari surilgan yangi g'oya davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi hamda rag'batlantiriladi. Bu borada hozirda davlat boshqaruvi to-

monidan bir necha ijobiy ishlar qilinganki, ularga mazkur tadqiqot ishining kirish qismida batafsil to'xtalib o'tdik.

Davlat tomonidan innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash va tartibga solish masalasida bir necha ilmiy qarashlar mavjud. Jumladan, innovatsion faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish deganda davlat organlari tomonidan iqtisodiyotdagi innovatsion jarayonlarni kuzatish va yangi bilimlar, texnologiyalar va mahsulotlarni ishlab chiqarish va tijoratlashtirishni rag'batlantirish uchun qabul qilinadigan huquqiy normalar va tartibga solish choralari tushuniladi [1].

Yigirma birinchi asrning birinchi o'n yiligidan innovatsion faoliyatning ilg'or mahsuli sifatida har qachongidan ham foydalanuvchilarga samarali va arzon moliyaviy xizmatlarni taqdim etish uchun katta istiqbollar beradigan yangi texnologiyalarning rivojlanishi kuzatildi. Ta'kidlash lozimki, bu borada innovatsiyalar taqdim etayotgan imkoniyatlardan raqamli tizim orqali hatto jinoyat olami va-killari ham foydalangan holatlarni kuzatish mumkin.

Raqamli munosabat subyektlariga xizmat ko'rsatuvchi mavjud provayderlar, texnik jihatdan tartibga soluvchilar, mazkur sohani nazorat qiluvchilar hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlar ham moliyaviy texnologiyalardagi ushbu yutuqlar bilan bog'liq muammolarga tezda moslashishlari va ularga xos ravishda qonuniy choralar orqali javob berishlari kerak. Ma'lumki, COVID-19 bilan bog'liq jahon miqyosida kuzatilgan salbiy oqibatlar raqamli moliyaviy texnologiyalarni amalga tatbiq etish zaruratini isbotlab berdi. Pandemiya sharoitida davlatlar tomonidan qo'yilgan turli shakldagi cheklavlar natijasida ko'plab odamlar ilgari naqd pulda amalga oshirilgan ijtimoiy to'lovlarini raqamli ravishda olishlari uchun bank hisobraqamlarini ochishga majbur bo'lishdi. Buning oqibatida pandemiya tufayli global elektron tijorat 2021-yil o'rtalariga kelib 26,7 trillion dollar-ga ko'tarildi [2].

Material va metodlar

Ushbu maqolada bank faoliyatidagi innovatsion texnologik o'zgarishlarning huquqiy asoslari bilan bog'liq materiallar tadqiqot obyekti sifatida o'rganiladi. Shu bilan bir qatorda, raqamli xizmat ko'rsatishning raqobatga ta'siri, samaradorligi va mijozlar manfaatini ko'zlovchi mezonlar ilmiy tahlil etildi. Raqamli moliyaviy xizmat ko'rsatish sohasida "FinTech" va "BigTech" firmalari timsolida ularning faoliyatni huquqiy tartibga solish mexanizmining rivojlanish jihatlarini o'rganiladi. Maqolaning asosiy metodlari sifatida qiyosiy-huquqiy tahlil, mantiqiy sharhlash hamda tizimlashtirish usuli tanlab olingan bo'lib, mazkur tadqiqotda raqamli moliyaviy xizmat ko'rsatish sohasidagi jahonda ilgari surilayotgan doktrinalar, qarashlar va sohadagi olimlarning fikrlari nuqtayi nazaridan raqamli munosabatlarni tartibga soluvchi normalar hamda normativ huquqiy hujjatlarini takomillashtirish bo'yicha tahlillar amalga oshirilgan.

Tadqiqot natijalari

Biz quyidagi tahlillar orqali raqamli moliyaviy xizmat ko'rsatish sohasini huquqiy jihatdan rivojlantirishni o'z oldimizga maqsad qilganmiz.

O'z o'rnida, amaldagi qonunlarda fuqarolik muomalasi obyekti sifatida tan olingan pul birligi – ma'lum bir qiymatga egaligi, moddiy ne'mat yoki tovar sifatida e'tirof etilganligi yoxud ayirboshlash xususiyatining unda mavjudligi bilan belgilanadi.

Bugungi kunda biz uchun raqamli munosabatlarni huquqiy tartibga solish qanchalik qiyin kechayotgan bo'lsa, qo'limizdagi oddiy qog'oz ko'rinishidagi pul birligining paydo bo'lishi ham yillar davomida rivojlanish bosqichlarini o'z boshidan o'tkazgan. Ma'lumki, asrlar davomida muomalada bo'lgan turli hajm va ma'lum qiymatga ega bo'lgan qog'oz pullardan foydalanib kelindi. Biz bilgan qog'oz pullar yaqinda chiqarilgan bo'lsa-da, biroq shaxslar o'rtasida qog'oz pullar orqali ayirboshlash munosabatlari qirq ming yil ol-

din boshlangan [3]. Arxeologik ma'lumotlardan ma'lum bo'lishicha, so'nggi tosh asrida ajdodlarimiz turli harbiy va mehnat qurollar savdosi bilan shug'ullanishda tovar ayirboshlash munosabatlarining rivojlanishini boshlab berishgan. Biroq bu aynan shu vaqtda turli hajm va qiymatga ega bo'lgan pul birligi orqali ayirboshlash amalga oshirilgan, degan xulosaga olib kelmaydi. Ayirboshlash vositasi sifatida puldan foydalanish biroz keyinroq paydo bo'ldi.

Bu borada tarixiy ma'lumotlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, XIII asrda sayyoh Marko Polo Xitoy hududlariga sayohat qilar ekan, o'zi guvoh bo'lgan qog'oz pul muomalasi bilan bog'liq hodisani yevropaliklarga mo'jiza sifatida tanishtirishga harakat qilgan. Xususan, uning yodnomalariga ko'ra, "Imperator butun mamlakat bo'ylab pulga o'tadigan qog'oz ishlab chiqarish uchun tut daraxti po'stlog'idan foydalanadigan zarbxonalar faoliyat olib borayotganligi, qog'ozni ishlash jarayonida barcha uchun sir bo'lgan mukammal kimyoviy usullardan foydalanib kelayotganligidan hayratga tushgan"ligini bayon qiladi. Mashhur sayohatchi Marko Polo yozgan Xitoydagi mazkur holat o'sha hududda va davrda o'rnatilgan qog'oz pullar ishlab chiqarish amaliyotlardan guvohlik beruvchi bir hodisa edi [4]. Tarixiy manbalarga ko'ra, yevropaliklar esa dastlab amaliyotdagi tanga pullarni qog'oz pullarga o'zgartirishga shubha bilan qarashgan bo'lib, faqatgina XVII asrga kelib birinchi qog'oz pul ko'rinishidagi banknotlar Yevropada *Stockholms Banco* tomonidan chiqarilgan [5].

Inson intellektual salohiyati natijasida takomillashgan innovatsion g'oyalar ortida pulning shakli vaqt o'tishi bilan tabiiy obyektlar hisoblangan ayirboshlashdan tangalar-gacha, qog'oz kupyuralardan raqamli valyutagacha rivojlanish bosqichini o'z boshidan o'tkazdi.

Qog'oz pullar, o'z navbatida, rivojlangan iqtisodiyotga hamda uni yanada taraqqiy etishiga ijobiy xizmat qilib keldi. Mazkur

faoliyatni nazorat qiluvchi moliyaviy organlar tomonidan banknotlarni chop etish, tarqatish, yig'ish, shuningdek, shakllangan va korrupsion xususiyatga ega bo'lgan veksel-larni yo'q qilish uchun infratuzilmani oson-gina saqlab turishdi. Biroq yillar davomida moliyaviy munosabatlarni amalga oshirish-da shunday kamchiliklar kuzatila boshladiki, naqd pulni boshqarish uchun ulardan qim-matli bo'lgan xizmatlar hamda cheklanmagan vaqt talab etishi bu borada innovatsion islo-hotlar o'tkazishni kun tartibiga qo'ydi. Jum-ladan, to'lov shoxobchalarida naqd pullarning tizimli ravishda to'planib borishi, ularning kun oxirida hisoblanishi hamda yig'ilgan pul-lardan tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirish orqali foydalanish yoki bankka o'tkazilgunga qadar uni xavfsiz saqlash kabi majburiyatlar kun tartibida doimiy mavjud edi.

Bu borada ilmiy izlanishlar olib borgan olimlar ham o'zlarining qarashlarida quyi-dagicha, ya'ni naqd puldan foydalanuvchilar uni sarflashda vositachilik to'lovlarini chek-lab o'tishlari orqali yashirin iqtisodiyotni vu-judga keltirishi, davlat tomonidan belgilan-gan soliqlar to'lashni chetlab o'tishlari hamda ular tomonidan naqd qiymatdagi valyutaning to'planib qolishi natijasida uning qiymati yuzasidan mas'ul moliyaviy tashkilot emas, balki jismoniy shaxslar tomonidan nazorat qilinishiga imkon yaratadi, degan fikrlarni il-gari surishadi [6].

Tadqiqot natijalari tahlili

Tadqiqot ishlarining tahlili shunday xu-losa qilishga olib keladiki, yillar davomida naqd pul birligi biznes sohasida jiddiy jinoyat xavfini oshirib boruvchi vosita sifatida o'z is-botini topdi. Bundan tashqari, naqd pulning kingadir tegishlilikini aniqlash imkoniyati-ning cheklanganligi uni jinoyatdan olingan daromadlarni legallashtirish yoki jinoiy faoli-yatni moliyalashtirishga intilayotgan shaxslar uchun qulay imkoniyat taqdim etadi. Hozirda mavjud raqamli pul muomalasida aynan ush-bu holat ham yuqoridagi fikrlarni istisno qil-maydi, ya'ni raqamli valyutani tartibga solish

holati pul birligi hisoblangan valyutaga nisbatan ham murakkabroq holatlarga olib kelmoqda.

Bugungi kunda raqamli moliyaviy munosabatlarining o'sishi bilan raqamli to'lovlar ni amalga oshirish uchun global bank tizimlariga tayanishga ehtiyoj ortib bordi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda qulay raqamli xizmatlarning tez o'zlashtirilishi raqamli to'lovlarni o'rganish va ular ustida tadqiqotlar olib borishni talab etdi. Amaliy misol sifatida quyidagilarni, ya'ni 2007-yilda Keniyada ishga tushirilgan M-Pesa yetakchi telekommunikatsiya xizmatlari provayderi "Safaricom" tomonidan taqdim etilgan raqamli pul modelidan foydalangan holda tijorat banki bilan hamkorlikda depozitlarni qabul qilish funksiyalarini bajarishni o'z zimmasiga oldi [7]. Bunda "Safaricom" kichik agentliklar tarmog'i orqali raqamli pul xizmatlarini ko'rsatishning asosiy provayderi hisoblanadi. Olingan ma'lumotlarga ko'ra, 2021-yilning avgust oyiga kelib 60 milliondan ortiq raqamli pul hisoblari mavjud bo'lgan va kundalik pul o'tkazmalari (tranzaksiyalar) qiymati 145,5 million AQSh dollarini tashkil qilgan [8].

Bundan tashqari, internet tarmog'iga ulangan mobil aloqa qurilmasi 2007-yilda "Apple" kompaniyasi tomonidan taqdim etilishi natijasida foydalanuvchilarda internet-banking shaxsiy kompyuterlaridan mobil telefonlarga o'tkazish imkonini berdi. Shuningdek, yaponiyalik Satoshi Nakamoto tomonidan 2009-yil 3-yanvarida Bitkoin tarmog'iga asos solingan va bu orqali "Bitkoin" tizimi genezis bloki raqamli moliyaviy xizmat ko'rsatishni jamiyatga taqdim etdi. 2019-yilning o'rtalariga kelib, "Facebook" "Libra" uchun kriptovalyuta loyihasini taqdim etgan holda raqamli pulning uchta belgisi, ya'ni ayirboshlash, hisob birligi va qiymatini belgilashga mos keluvchi mexanizmni ishlab chiqdi [9]. Shundan so'ng 2019-yilning oxirlariga kelib, AQShda ishga tushirilgan "Libra"ga javoban Xitoy davlati o'zining "raqamli yuan" tashabbusini e'lon

qildi. Bu holat Xitoy davlatini moliyaviy sohada dunyodagi birinchi mustaqil raqamli valyutaga ega bo'lgan yirik iqtisodiyotga aylantirdi [10]. Mazkur o'zgarishlar ko'p yillar davomida foydalanib kelingan moliyaviy xizmatlar intihosini boshlab berdi. Ta'kidlash lozimki, moliyaviy innovatsiyalarning bu ko'rinishdagi rivojlanishi butunlay yangi moliyaviy xizmat ko'lamini kengligi va qulayligini o'zida ifodalaydi.

O'z navbatida, yaratilgan zamonaviy texnologiyalar iqtisodiyot va huquq sohasi uchun yangi atamalar hamda nomlanishlarni talab qilishni boshladi. Masalan, hozirda raqamli moliyaviy xizmatlarda foydalaniladigan "M-Pesa" modeli "mobil pul" nomi bilan mashhur bo'lib, uning biznes modeli "tarmoqsiz banking" deb ta'riflandi [11]. Moliyaviy xizmatlar shakli va mohiyati o'zgarganligi sababli mazkur sohada yangi uslubdagi "raqamli moliyaviy xizmatlar" deb nomlangan bozor yaratildi va uning o'ziga xos boshqaruv tizimi haqida yangi qoidalar yaratildi.

"Fintech" (financial technology) atamasidan birinchi bor o'tgan asrning to'qsoninchi yillari boshlarida "Citigroup" tashabbusi bilan o'tkazilgan texnologik hamkorlikdagi mavjud masalalarning yechimi yo'lida boshlangan loyihada foydalanildi [12]. Ushbu loyihaning asosiy maqsadi moliyaviy xizmatlarni to'liq ta'minlaydigan, innovatsion va yangi texnologiyaga asoslangan moliyaviy xizmat ko'rsatish hamda an'anaviy qoidalardan voz kechilgan biznes modellariga murojaat qilish imkoniyatini berishdan iborat edi.

Raqamli moliyaviy texnologiyaning mazmun-mohiyati shundan iboratki, u bilan an'anaviy to'lov, jamg'arma va kredit masalalari, xususan, internet-banking, mobil banking, raqamli hamyonlar va elektron pullar orqali amaldagi an'anaviy bank amaliyotisiz foydalanish imkonini beradi.

Bugungi kundagi texnologik rivojlanish, o'z navbatida, raqamli investitsiya, teng kreditlash hamda kraudfanding platformalari

kabi yangi mahsulotlar orqali yangi biznes modellari yaratilmoqda. Buning natijasida ijtimoiy media ma'lumotlari va sun'iy intellektni birlashtirgan provayderlar foydalanuvchilarga moslashtirilgan xizmatlarni, shu jumladan, kreditni ham taqdim etishi mumkin.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, ilgari surilgan g'oyalar, ular asosida yaratilgan yangi texnologiyalar doim ham o'zining amal qilish doirasi va tabiatiga qarab jamiyat tomonidan bir ovozda qabul qilinavermaydi. Bu borada jamiyatda manfaatlar to'qnashuvidan kelib chiqadigan unga qarshi fikrlar doim mavjud bo'ladi.

Bu borada tadqiqotchilar o'z qarashlari bilan uning foydali asoslarini ko'rsatib bermoqda, ya'ni "...raqamli moliyaviy xizmat ko'rsatish texnologiyalari shunchaki mavjud biznes jarayonini takomillashtirish va unga yengillik beruvchi vosita emas, aksincha, u jamiyatni o'zgartiruvchi texnologiyalardan foydalangan holda mavjud moliyaviy xizmatlar modellarini bir chetga surish bilan foydalanuvchilar ko'rmagan va tasavvurlariga sig'dirmagan kelajakdagi xizmatlar taqdim etilishining mazmun-mohiyatini sezilarli darajada o'zgartiradi" [13] degan fikrni ilgari surishmoqda.

Hozirgi mavjud imkoniyatlar internetga kirishning kengayishi, arzon mobil qurilmalar, sun'iy intellekt va blokcheyn texnologiyasidagi ishlanmalar bilan bog'liq xolos. Ushbu sohaga mas'ul bo'lgan tashkilotlarning ma'lumotlarga ko'ra, 2022-yilning oxiriga kelib, jahonda 5,2 milliard kishi, ya'ni dunyo aholisining uchdan ikki qismi mobil aloqa xizmatlariga ulangan [14]. Olib borilgan tahlillarga ko'ra, mazkur foydalanuvchilarning aksariyati rivojlanayotgan mamlakatlar hisobiga to'g'ri kelib, bu holat zamonaviy va murakkab texnologiyalardan erkin foydalanish holatiga o'tayotganligidan dalolat beradi.

Sir emaski, jahonda bo'lib o'tgan COVID-19 pandemiya holati raqamli munosabatlarning rivojlanishiga va u orqali to'lovlar ni amalga oshirish jarayonining tezlashishiga turtki berdi. Pandemiya holati iste'molchilar

va provayderlar o'rtasidagi o'zaro aloqalar ni almashtirish uchun raqamli ulanishga shoshilinch ehtiyoj tug'dirdi hamda bu o'ziga bog'liq bo'lmagan holda raqamli to'lovlar ning o'sishiga olib keldi. Butun jahonda pandemiya qarshi kurash siyosati sababli tadbirkorlik subyektlari va fuqarolar tomonidan moliyaviy ilovalarni yuklab olish hajmining oshishiga sabab bo'ldi. Jumladan, 2020-yilda raqamli to'lovlar avvalgi yillarga qaraganda taxminan 12,7 %ga o'sganligi va har yili 726 mlrd AQSh dollari tranzaksiyaga yetib borishi kutilayotganligi [15] ta'kidlangan.

Bo'lib o'tgan bunday vaziyat oqibatida o'z-o'zidan markaziy bank oldiga raqamli valyutalar bo'yicha ishni tezlashtirish hamda bu borada kechiktirib bo'lmaydigan choralarni ishlab chiqish vazifasini kun tartibga qo'ydi.

Amalga oshgan mazkur o'zgarishlar muhim bo'lsa-da, tan olish lozimki, raqamli to'lovlarni amalga oshiruvchi asosiy texnologiyalarning ko'pchiligi hali rivojlanishga nisbatan kelajak bosqichida ekanligini ta'kidlash lozim. Bu borada bizning oldimizda raqamli moliyaviy xizmat ko'rsatish sohasini tartibga soluvchi rivojlangan xorijiy mamlakatlar normativ bazasini o'rganish, tahlil qilish hamda uni milliy qonunchilik normalariga ijobiy jihatlarini singdirish orqali mazkur sohani tartibga soluvchi milliy va yangi normativ bazani shakllantirish vazifasi turibdi.

Ta'kidlash lozimki, raqamli moliyaviy xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish yo'lidagi, bir necha to'siqlarga qaramasdan, hozirda rivojlangan mamlakatlarda ushbu sohani yanada takomillashtirishga bel bog'lashgan. Raqamli moliyaviy xizmatlarni rivojlantirish, o'z navbatida, bitkoin, uning asosidagi blokcheyn moliyaviy xizmatlarning vositachilik modeliga hamda to'g'ridan to'g'ri undagi valyuta tushunchasiga qarshi kurashish uchun ishlab chiqilgan. Hozirda moliyaviy xizmat ko'rsatish sohasini nazorat qiluvchi tashkilot kriptoaktivlarini valyuta sifatida tan olishdan bosh tortdi [16].

Bitkoin muomalasining bir davlatda tan olinishi yoki boshqa davlatda tan olinmasligi ushbu sohada bahs va munozaralar tugamaganligidan dalolat beradi. Bitkoin bilan bog'liq texnologiyalar vositachilikka yo'naltirilgan joriy tartibga solish modeli davlatlar o'rtasida raqamli moliyaviy xizmat ko'rsatish sohasida jiddiy qiyinchiliklar tug'dirishi haqiqat bo'lib qolmoqda.

Rivojlangan moliyaviy texnologiyalar bugungi kunda tez sur'atlarda takomillashib borishi fuqarolik munosabatlari subyektlariga ko'p narsalarni taklif qiladi. Amalda bo'lgan ipoteka va sanoat qurilish banklari amaliyoti bilan taqqoslaganda, moliyaviy texnologiya provayderlari juda aniq marralarda ishlashlari sababli juda ham arzon xizmatlarni taklif qilishlari mumkin. Ushbu xizmatlar ko'pincha an'anaviy bank xizmatlaridan ko'ra tezroq bo'lib, maqbul vaqt rejimida hisob-kitoblar aniq va belgilangan tartib-taomillar asosida amalga oshiriladi. Moliyaviy texnologiyalarining eng katta yutug'i moliyaviy munosabatlarni amalga oshiruvchi subyektlarga samarador bo'lgan qulayliklarni taqdim etadi. Ushbu yutuqlar, iqtisodiy jihatdan o'sishga malakali xizmatlar taklif qiladi hamda qo'shimcha ish o'rinlari yaratishga yordam beradi.

Raqamli moliyaviy xizmat ko'rsatish sohasining amalga tatbiq etilishi moliyaviy texnologiyalar kam ta'minlangan boshqa zaif guruhlar manfaatlariga doir ishlarni amalga oshirishga ham ko'maklashishi mumkin. Jumladan, jamiyatda mavjud kam ta'minlangan oilalar, chekka qishloq aholisi hamda fuqarolik holatini tasdiqlovchi hujjati bo'lmagan shaxslarga rasmiy moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini beradi.

So'nggi o'n yil ichida moliyaviy xizmatlarni o'z ichiga qamrab olgan sohalarda sezilarli yutuqlarga erishilganligi quyidagi misollarda keltirilgan. Jumladan, 2022-yildagi "Global Findex" ma'lumotlar bazasiga ko'ra, 2014-yildan buyon 1,2 milliard fuqaro, jumladan, 2018-yildan beri 515 million kishi hisob ochgan [17]. Bundan tashqari, "Grove

Speciale Mobile Association"ning 2021-yilgi mobil pullar bo'yicha hisobotida milliarddan ortiq mobil hisob qaydnomalari ro'yxatga olingani ko'rsatilgan.

Biroq mazkur statistik ma'lumotlar orqali aniq hamda ishonchli bo'lgan holatlar to'g'risida tushunchaga ega bo'lish qiyinchilik tug'diradi. Bundan tashqari, raqamli moliyaviy xizmatlar jamiyatimizdagi barcha sohalarni qamrab olish borasidagi harakatlari-ga nisbatan mavjud to'siqlar hali ham saqlanib qolmoqda. Bu holat hatto banklar yuqori tavakkalchi mijozlarni bankdan chiqarish siyosatini qabul qilgan joylarda yanada yomonlashishi mumkin. Shunday qilib, moliyaviy texnologiyalar raqamli moliyaviy xizmatlarni rivojlantirish uchun kalit bo'lib kelgan, ammo tartibga solinadigan moliyaviy xizmatlardan universal foydalanish hamda ishtirok etishni ta'minlash uchun hali ko'p ishlarni qilish lozim bo'ladi. Raqamli moliyaviy xizmatlar sohasini qonuniy jihatdan tartibga solish darajasining pastligi va nazorat qilish doirasidan tashqaridaligi ulardan jinoiy maqsadlarda foydalanish, pullarni noqonuniy naqdlashtirish va yashirin iqtisodiyotning vujudga kelish xavfini ham nazoratdan chetga chiqar-maslik lozim.

Olib borilgan tadqiqot natijalariga asoslangan holda shunday xulosaga kelish mumkinki, raqamli moliyaviy xizmatlarni huquqiy tartibga soluvchi qonun normalarini ishlab chiqish hamda uni amalga tatbiq etishda moliyaviy kompaniya vakillari oldingi chiziqda turib harakatlarni amalga oshirishlari lozim bo'ladi. Jumladan, ushbu sohada faoliyat olib boruvchi malakali mutaxassislarni qonun ijodkorligi sohasiga jalb qilgan holda ishlarni tashkil etish hamda ular faoliyatini maqsadli moliyalashtirish orqali ko'zlangan manzilga yetish mumkin. Masalan, davlatlarning markaziy banki tomonidan raqamli valyutalari moliyaviy jihatdan qamrab oluvchi vositalar yetishmasligi yoki uni nazorat qila olmaslik holatlarining mavjudligi ushbu sohadagi mutaxassislar tomonidan bunday holatlarga

nisbatan shubha bilan qarashlariga olib keladi. Bunda elektron valyutalar banklar yoki moliyaviy faoliyat bilan shug'ullanmaydigan subyektlar tomonidan chiqarilgan elektron pullar kabi muqobillari bilan solishtirilganda iste'molchilar uchun raqamli moliyaviy xizmatlarning qiymat bilan bog'liq masalasini ko'rib chiqish imkoniyati mavjud emas.

Mazkur holatlar moliyaviy texnologiyalar tomonidan yuzaga keladigan xavflarga ham tegishli hisoblanadi. Ba'zi moliyaviy texnologiya modellari mijozlardan ularga tegishli bo'lgan ma'lumotni talab qiladi va shu asosda foydalanuvchilar haqida shaxsiy ma'lumotlarni to'playdi. Mazkur holatlar mijozlarga tegishli bo'lgan ma'lumotlari suiiste'mol qilinishiga olib keladi. Bu holat esa provayder hamda foydalanuvchilarning kiberjinoyatlariga qarshi kurashish immunitetini yo'qotadi.

Bu borada tadqiqotlar olib borgan olimlarning fikricha, to'lov tizimi moliyaviy yaxlitlik tizimiga nisbatan zaif bo'lgan yurisdiksiyada joylashgan bo'lsa, bu yaratilgan sharoit jinoyatchilar uchun jozibadorlik kasb etadi [18].

O'z navbatida, mazkur texnologiyalardan jinoyatchilar tomonidan pul yuvish, terrorizm, ommaviy qirg'in qurollarini moliyalashtirish hamda investitsion firibgarlik va bozorni noqonuniy bo'ysundirish kabi jinoyatlarni sodir etishda foydalanishga imkon beradi.

Global miqyosda pul yuvish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish tashkiloti (Financial Action Task Force – FATF) hamda pul yuvishga va daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro qoidalarni belgilovchi organ va terrorizm tarqalishni moliyalashtirishga qarshi kurashuvchi tashkilotlar o'zlarining faoliyatlari xususiyatiga ko'ra, tavsiyaviy tasnifdagi huquq normalarini shakllantiruvchi hukumatlararo tashkilotlar sifatida e'tirof etilishi mumkin.

Global miqyosda pul yuvish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish

tashkiloti tavsiyalari raqamli moliyaviy xizmat ko'rsatishni tartibga solish, nazorat qilish, bu borada buzilgan huquqlarni muhofaza qilish va huquqiy masalalarni qamrab oluvchi batafsil texnik qoidalarni o'z ichiga oladi.

Raqamli moliyaviy texnologiyalar bilan bog'liq munosabatlarda jinoiy suiiste'molchilikning oldini olish maqsadida Global miqyosda pul yuvish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish tashkiloti tomonidan alohida qoidalar ishlab chiqilganki, unga ko'ra davlatlar va moliya institutlarda yangi moliyaviy mahsulotlar, texnologiyalar va biznes amaliyotlari doirasida yetkazib berish nazarda tutilgan yangi mexanizmlar bilan bog'liq xavflarni aniqlash va baholash tartibi belgilanadi. Mazkur tashkilotning talabiga ko'ra moliyaviy institutlar bunday innovatsion texnologiyalarni ishga tushirishdan oldin kelajakda kutilayotgan xavflarni baholash va uning hajmini kamaytirish choralari ishlab chiqishlari talab etiladi.

Global miqyosda pul yuvish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish tashkiloti 2018-yildan boshlab mazkur qoidalarni davlatlardan virtual aktivlarga xizmat ko'rsatuvchi provayderlar faoliyati tartibga solinishini, jumladan, litsenziyalash yoki ro'yxatdan o'tganligini, monitoring va muvofiqlik uchun samarali tizimlarga bo'ysunishining ta'minlanganlik darajasini talab qilib, bu orqali mazkur qoidalar ko'lamini kengaytirdi. Moliyaviy texnologiya innovatsiyasining juda ham tez o'zgarib hamda rivojlanib borayotganligi holati mazkur qoidalarni qayta ko'rib chiqishga sabab bo'ldi.

Biroq raqamli moliyaviy xizmatlar bilan bog'liq faoliyatni tartibga soluvchilar tashkilotlar hamda huquqni muhofaza qilish organlari uchun innovatsion moliyaviy texnologiyalardan foydalanganlik natijasi yuzasidan qo'yiladigan talablar yoki qonun normalari talqini ham bir xilda emas. Texnologiya ularga "supotech" deb nomlanuvchi yangi vositalarni ham taqdim etgan bo'lib, bu sun'iy intellekt texnologiyalari hamda provayder

ma'lumotlariga kirishning kengayishi mazkur faoliyatni nazorat qiluvchilar yoki huquqni muhofaza qilish organlarining real vaqt rejimida aralashuvini ta'minlashi mumkin. Bu orqali yangi mahsulotlar va innovatsion modellarni nazorat qilish va ular ustida tahlillarni olib borish yigirmanchi asrdagi an'anaviy moliyaviy xizmatlarga qaraganda ancha aniqroq tekshirilishi mumkin.

Xulosalar

Olib borilgan yuqoridagi tahlil natijalariga ko'ra, raqamli moliyaviy xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish orqali moliya va bank xizmatlarining muvofiqlik jarayonlarini yaxshilash mumkin. Jumladan, hozirda zamonaviy qoidalar qatorida "Lawtech" yondashuvi mavjud bo'lib, unga ko'ra kodli qoidalar (Rules as Code) – bir vaqtning o'zida inson tilini va yangi qoidalarning kodlangan talqinini ishlab chiqish mumkin [19]. Mazkur qoidalar, o'z navbatida, institutsional jarayonlar va protseduralarga faoliyat muvofiqligini kodlash imkonini beradi hamda shu bilan muvofiqlikdagi inson tomonidan yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan kamchiliklar maydonini kamaytiradi. Shu orqali raqamli moliyaviy xizmatlarni tartibga soluvchi organlar nazoratchilari hamda faoliyatni tartibga solinadigan muassasalar yangi texnologiyalardan kelib chiqadigan huquqbuzarlik xavfini kamaytish uchun yaxshilangan vositalarga ega bo'ladilar.

Jahon miqyosda global pul yuvish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish tashkiloti uchun o'zgaruvchan qoidalar va tartibga solish usullari qiyinchilik tug'dirmaydi. Biroq ziddiyatli vaziyat shundaki, raqamli moliyaviy xizmat ko'rsatishdan ko'riladigan foydani aniqlash va uni soliqqa tortish bilan bog'liq asosiy muammolar mavjud, ya'ni:

– raqamli moliyaviy xizmat ko'rsatish sohasida aniq konseptual takliflarning yo'qligi bilan bog'liq muammolar. Bunda raqamli moliyaviy innovatsiyalar iqtisodiyotga foyda keltirishi atroflicha e'tirof etilgan bo'lsa-da, yangicha ishlangan innovatsiyalar yangicha

faoliyat olib borish manzarasini o'zgartirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Moliyaviy tashkilotlar, banklar va yangicha ishlanmalar o'rtasidagi hamkorlik ushbu innovatsiyalarning rivojlanishiga turtki bo'lmoqda. Fintech sohasidagi me'yoriy o'zgarishlar, o'z navbatida, bank sektoridagi raqobatga ta'sir qiladi. Shunga qaramay, turli texnologiyalar har xil foyda keltiradi hamda ular turfa xavflarni o'z ichiga oladi. Biroq ayrim texnologiyalar bilan bog'liq xavf-xatarlar, foydalari va ularga nisbatan qonunbuzilish tahdidi boshqa xavf-xatarlar bilan eng yaxshi muvozanatlash yo'lidagi tahlillar yetarli darajada emasligi bilan baholanadi;

– raqamli moliyaviy xizmat ko'rsatish sohasida haqiqiy xavf va foydalar to'g'risida ma'lumotlarning yetishmasligi bilan baholash mumkin.

Ishlab chiqilgan texnologiyalar, albatta, yangi avlod turiga mansub bo'lib, undagi haqiqiy foyda va xavflarni murakkab tahlil qilish uchun hali-hanuz yetarli ma'lumotlar yaratilmagan. Shuning uchun olib borilgan joriy tahlillar ko'pincha raqamli moliyaviy xizmat ko'rsatish sohasiga oid da'volarning kelib chiqishiga hamda xavotirlarga asos bo'ladi. Bundan tashqari, raqamli aktivlarni huquqiy jihatdan tartibga solishning aniq va ishonchli mexanizmlari ishlab chiqilmagan. Xalqaro moliyaviy tashkilotlar tomonidan raqamli aktivlar bilan bog'liq xatarlardan kafolatlovchi huquqiy hujjatlarning yo'qligi ham mazkur sohani qo'llab-quvvatlovchi harakatlarning sekinlik bilan borayotganligidan dalolat beradi. Albatta, yanada yangi texnologiyalarning amalga joriy etilishi ushbu faoliyat bilan bog'liq xatarlarni vujudga keltirishi mumkin.

Raqamli moliyaviy aktivlar haqida yetarli ma'lumotlarning mavjud emasligi hamda uni nazorat qilish imkoniyatining cheklanganligi foyda va xarajatlar tahlilini doimiy ravishda olib borish imkoniyatini bermaydi. Bu holat yangi innovatsion g'oyalarning rivojlanishini to'xtatib turishga qaratilgan konservativ yondashishga olib kelishi mumkin.

REFERENCES

1. Smith M. The concept of building and transforming a digital society. *Journal Creative Education*, 2021, vol. 12, no. 9, p. 76.
2. Goldbarsht G. Global counter-terrorist financing and soft law. Eds. E. Elgar, Ch. Jenik et al. Rapid account opening in a pandemic, CGAP COVID-19 Briefing. 2020. Available at: <https://www.cgap.org>
3. Kusimba C. When – and why – did people first start using money? The Conversation. Available at: <https://theconversation.com>
4. Tullock G. Paper money: a cycle in Cathay. *Econ Hist Rev*, vol. 9, no. 3, pp. 393–407.5. Sveriges Riksbank – First banknotes in Europe, 2021. Available at: <https://www.riksbank.se/en-gb/>
6. Davies C. The future of cash. *RBA Bulletin*, 2016, pp. 43–52.
7. Muthiora B. Enabling mobile money policies in Kenya: fostering a digital financial revolution. GSMA, London, 2015. Available at: <https://www.itu.int>
8. Ndungu N.S. Digital financial services revolution in Kenya: the M-Pesa case study. *African Economic Research Consortium, Nairobi Renteria*, 2021, 10 June. Available at: <https://www.reuters.com>
9. Zetsche D.A. Regulating Libra. *Oxford J Legal Stud.*, 2021, vol. 41, no. 1, p. 83.
10. Didenko A. After Libra, Digital Yuan and COVID-19: Central bank digital currencies and the new world of money and payment systems. European Banking Institute Working Paper Series, 2020.
11. Ivatury G., Mas I. The early experience with branchless banking. Rapid account opening in a pandemic, CGAP COVID-19, 2020. Available at: <https://www.cgap.org>
12. Khraisha T., Arthur K. Can we have a general theory of financial innovation processes? A conceptual review, 2018. DOI: 10.1186/s40854-018-0088-y
13. Leonard De Koker. Regulating financial services in an era of technological disruption. Law Context, London, no. 36, p. 112.
14. Grope Speciale Mobile Association: The mobile economy and law. 2022. Available at: <https://www.gsma.com>
15. Financial Action Task Force (FATF). Guidance on digital identity. FATF, Paris, 2020. Available at: <https://www.fatf-gafi.org>
16. Basel Committee on Banking Supervision. Statement on crypto-assets. Bank for International Settlements, Basel, 2021. Available at: <https://www.bis.org>
17. Demircuc-Kunt. The Global Findex Database 2022: measuring financial inclusion and the fintech revolution. World Bank, Washington DC, 2022, p. 63.
18. Goldbarsht D. New payment systems: potential counter-terrorist financing risks and the legal response in the United Kingdom. Routledge, London, pp. 125–139.
19. Governatori G. Rules as Code will let computers apply laws and regulations. But over-rigid interpretations would undermine our freedoms. *The Conversation*, 2020. Available at: <https://theconversation.com/rules-as-code>
20. United Nations Global e-commerce jumps to \$26.7 trillion, fuelled by COVID-19. UN News, 2021. Available at: <https://news.un.org>

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2024-YIL 1-SON

VOLUME 4 / ISSUE 1 / 2024

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.4.1.

BOSH MUHARRIR:

Xodjayev Baxshillo Kamolovich

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, professor, yuridik fanlar doktori

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

J. Allayorov

Ilmiy boshqarma boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Mas'ul muharrir: N. Ramazonov

Muharrirlar: Sh. Jahonov, Y. Mahmudov, M. Sharifova,
Y. Yarmolik, E. Mustafayev

Musahhih: K. Abduvaliyeva

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.

Faks: (0371) 233-37-48.

Veb-sayt: www.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1387.

Jurnal 26.03.2024-yilda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Shartli bosma tabog'i 19,3.

Adadi: 100. Buyurtma raqami: 37.

TDYU tipografiyasida chop etildi.